



## KRIPTOVALYUTALAR VA RAQAMLI AKTIVLAR TUSHUNCHASI. RAQAMLI IQTISODIYOTDA RAQAMLI AKTIVLAR QANDAY ISHLAYDI?

*CIU Business Administration*

*Xalqaro biznes boshqaruvi yo'nalishi talabalari*

***Toshtemirova Sitora Nurulla qizi***

+998938941218

[Toshtemirovasitora12@gmail.com](mailto:Toshtemirovasitora12@gmail.com)

***Abdukarimova Munira Jahongir qizi***

+998903710657

[muniraabdukarimova023@gmail.com](mailto:muniraabdukarimova023@gmail.com)

**Annatsiya:** ushbu maqolada raqamli aktivlarning fuqarolik huquqi ob'ekti sifatidagi tushunchasi va raqamli aktivlarning turlari ko'rib chiqiladi. Fuqarolik muomalasida hozrgi kunda odatiy moddiy narsalar bilan bir qatorda raqamli, ya'ni tuzulishi virtual bo'lgan kripto aktivlar paydo bo'ldi va bundan fuqarolik muomilasida keng foydalanilmoqda. Bular kriptoalyutalar, tokenlar, ijtimoiy media hisoblari va boshqa raqamli ob'ektlar ko'rinishida hayotimizga kirib keldi. Raqamli aktivlarning keng tarqalishi va ularning iqtisodiyotdagi o'rni tobora oshib borayotgan bir paytda, ushbu maqola raqamli aktivlarni to'g'ri tushunish va ular bilan bog'liq huquqiy masalalarni samarali hal etishda yordam beruvchi asosiy ma'lumotlarni taqdim etadi. Raqamli aktivlarni yanada chuqurroq o'rganish va tushunish, ularning qonuniy asoslarini ishlab chiqish va tartibga solish, shuningdek, raqamli aktivlar bilan bog'liq bo'lgan turli xil iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kriptoalyutalar, raqamli aktivlar, blokcheyn, bitcoin, token, virtual valyuta, onlayn akkaunt.

### **Концепция криптовалют и цифровых активов. Как цифровые активы работают в цифровой экономике?**

**Абстрактный:** В данной статье рассматривается понятие цифровых активов как объекта гражданского права и виды цифровых активов. В наше время, наряду с обычными материальными вещами, появились цифровые криптоактивы, которые носят виртуальный характер, которые широко используются в гражданском обороте. Они вошли в нашу жизнь в виде криптовалют, токенов, аккаунтов в социальных сетях и других цифровых объектов. В связи с широким распространением цифровых активов и их



ролью в экономике, в данной статье представлена ключевая информация, которая помогает в правильном понимании цифровых активов и эффективном решении юридических вопросов, связанных с ними. Это важный шаг в более глубоком изучении и понимании цифровых активов, развитии и регулировании их правовых рамок, а также в решении различных экономических и социальных проблем, связанных с цифровыми активами.

*Ключевые слова:* криптовалюты, цифровые активы, блокчейн, биткоин, токен, виртуальная валюта, онлайн-аккаунт.

### **The concept of cryptocurrencies and digital assets. How do digital assets work in the digital economy?**

**Annation:** This article examines the concept of digital assets as objects of civil law and the types of digital assets. Today, in civil circulation, along with the usual material things, digital, i.e., crypto-assets with a virtual structure, have appeared, and this is widely used in civil transactions. These have entered our lives in the form of cryptocurrencies, tokens, social media accounts and other digital objects. With the proliferation of digital assets and their role in the economy growing, this article provides key information to help effectively understand digital assets and effectively address legal issues related to them. A more in-depth study and understanding of digital assets, the development and regulation of their legal framework, as well as an important step in solving various economic and social problems related to digital assets.

**Keywords:** cryptocurrencies, digital assets, blockchain, bitcoin, token, virtual currency, online account.

Raqamli aktiv- real moliyaviy qiymatga ega bo'lgan va yagona identifikator ko'rinishida taqsimlangan reyestrda aylanadigan fuqarolik muomalasining faqat raqamli shaklda mavjud bo'lgan virtual obyekt. Huquqiy tabiatiga ko'ra raqamli aktiv axborot resurslari bilan bog'liq, chunki raqamli shaklda taqdim etilgan fuqarolik muomalasi obyekt axborot resursining quyidagi asosiy xususiyatlariga ega, masalan:

- a) ma'lum parametrlar va toifalar bo'yicha tuzilgan;
- b) raqamli tashuvchida yozilgan;
- c) saqlanishi, o'tkazilishi, almashtirilishi, ishlatilishi mumkin.

Kelajakda raqamli aktivlar yanada rivojlanishi va yangi turdagi



iqtisodiyotning asosiy qismlaridan biriga aylanishi kutilmoqda. Ular bilan bogʻliq huquqiy va texnik masalalar yechimi, shuningdek, ularning qoʻllanilish sohalarining kengayishi iqtisodiyotning turli sektorlarida yangi imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, raqamli aktivlar naqd pulsiz mablagʻlarga shubhasiz oʻxshashliklarga ega: raqamli aktivlar bir shaxsdan boshqasiga oʻtkazilishi mumkin va kripto aktivlar nomoddiy mulk boʻlib, ular vaqt oʻtishi bilan oʻz xususiyatlarini yoʻqotmaydi. Hozirda turli raqamli aktivlar muomalada oʻziga xos tarzda ifodalanadi (ularning nomlari, logotiplari, oʻz dasturiy taʼminoti mavjud)<sup>1</sup>. Binobarin, raqamli aktivlar rasmiy ravishda va iqtisodiy maʼnoda toʻlov vositasiga tenglashtirilishi mumkin va bundan tashqari, nomoddiy shakli tufayli naqd boʻlmagan mablagʻlarga juda oʻxshashdir.

Kriptoaktivlar uchun beshta umumiy xususiyat mavjud:

(a) nomoddiylik; (b) kriptografik autentifikatsiya; (v) taqsimlangan tranzaksiya kitobidan foydalanish; g) markazlashmaganlik; va (d) konsensus orqali boshqarish<sup>2</sup>

Raqamli aktivlarni tartibga solish uchun fuqarolik qonunchiligidan foydalanish, hatto kelgusidagi islohotlarni hisobga olgan holda, tarqoq boʻlib qolmoqda hamda yaqin kelajakda blokcheyn texnologiyasi jadal rivojlanish va integratsiyani hisobga olgan holda ham, uning asosida raqamli moliyaviy aktivlarni yaratish, joriy etish va ulardan foydalanish amaliyoti amalga oshirishda, raqamli moliyaviy aktivlar bajarishi mumkin boʻlgan barcha funksiyalarni hisobga olmaydi.<sup>3</sup>

Bugungi kunda raqamli aktivlar turlari juda koʻp va xilma-xil. Ular oʻz ichiga quyidagilarni oladi:

1. Kriptoalyutalar (masalan, Bitcoin, Ethereum va boshqalar)- raqamli pul birliklari boʻlib, ularning asosiy xususiyati shifrlash texnologiyalari orqali taʼminlanadi. Kriptoalyutalar transaktsiyalarni amalga oshirishda va mablagʻlar saqlanishida yuqori darajada xavfsizlik va shaffoflikni

---

<sup>1</sup> Lorens D. V. Sifrovye prava v sfere nedvijimosti: yuridicheskaya priroda i sposoby zashchity // Rossiyskaya yustitsiya. 2020. N 2. S. 30–34.

<sup>2</sup> Harvey D. J. Digital Property Revisited // Available at SSRN 3585485. – 2020.

<sup>3</sup> Sindeliani I.A.Pravovaya priroda sifrovых finansovых aktivov: chastnopravovoy aspekt.– URL://<https://urfac.ru/?p=2157>



ta'minlaydi.

2. Aksiyalar, obligatsiyalar va korporativ ulushlar- raqamli aktivlar shaklida mavjud bo'lgan, korporatsiyalarning ustav kapitalidagi ulushlar sifatida savdo qilinishi mumkin. Bunday aktivlar investitsiyalarni jalb qilish va korporativ moliya bozorlarini yanada moslashuvchan va samarali qilish uchun ishlatiladi.

3. Tokenlar- moliyalashtirishni jalb qilish maqsadida yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan emissiya qilingan raqamli moliyaviy aktivlardir. Tokenlar turli loyihalarni qo'llab-quvvatlash yoki loyihalardan manfaat olish uchun ishlatilishi mumkin.

4. Intellektual mulk obyektlari– bu turga musiqa asarlari, san'at asarlari, kitoblar kabi ijodiy mahsulotlar kiradi. Raqamli shaklda ularning mualliflik huquqlari yanada samarali boshqarilishi va foydalanilishi mumkin.

5. Fotosuratlar- raqamli fotosuratlar, ularning sifati va kirish imkoniyatlari tufayli, turli xil maqsadlarda, jumladan, reklama va marketingda keng qo'llaniladi.

6. Elektron sug'urta polislari- sug'urta xizmatlarini raqamli shaklda taqdim etish, mijozlarga qulayliklar yaratish va operatsion samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

7. Smart-kontraktlar- axborot qiymatiga ega bo'lgan mustaqil huquqiy obyektlardir. Ular shartnomalar va kelishuvlarning avtomatlashtirilgan, ishonchli va xatosiz bajarilishini ta'minlaydi.

8. Shaxsiy ma'lumotlar- raqamli aktiv sifatida shaxsiy ma'lumotlar ham qimmatli bo'lib, ularning boshqarilishi va himoyalanganligi juda muhimdir.

9. Bonus ballari va boshqalar- turli xil bonus dasturlarining raqamli aktivlari, mijozlarni jalb qilish va saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi.

Quyida ulardan eng keng tarqalgan raqamli aktivlarni ko'rib chiqamiz.

### **1. Kriptoalyuta.**

Bu virtual valyutaning bir turi bo'lib, uning ichki hisob birliklarini hisoblash markazlashtirilmagan to'lov tizimi tomonidan amalga oshiriladi. Bugungi kunda kriptoalyuta dunyoda hech qanday bank nazorati organi tomonidan tartibga solinmaydi va emitent markaziga ega emas. Foydalanuvchilarning o'zlari kod yaratadilar va kompyuterlarning hisoblash quvvatidan foydalangan holda shartli cheklangan resurs chiqaradilar. Kriptoalyutani mustaqil ravishda olish yoki ixtisoslashtirilgan elektron



savdo maydonchalarida (kriptoalyuta birjalari) sotib olish mumkin.<sup>4</sup> Kriptoalyuta qalbakilashtirish va takrorlashdan himoyalangan bo‘lib, uning miqdori va emissiyasi qat’iy cheklangan, masalan, hozirgi kundagi eng yirik kriptoalyuta hisoblangan Bitcoin (BTC) ning maksimal miqdori 21 millionta coin etib belgilangan (ya’ni, 21 milliondan ortiq BTC hech qachon bo‘lmaydi).

Fuqarolik muomalasidagi kriptoalyutalardan (virtual valyutalar) foydalanish imkoniyati blokcheyn texnologiyasini yaratish va tarqatish tufayli yuzaga keldi. Blokcheyn - bu ma’lum bir aktivga nisbatan amalga oshiriladigan barcha tasdiqlangan operatsiyalarning markazlashtirilmagan ma’lumotlar bazasi bo‘lib, uning ishlashi kriptografik algoritmlarga asoslangan. Ushbu texnologiyaning afzalliklari tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, axborotni qayta ishlashni tezlashtirish, moliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish va iste’molchilarning imkoniyatlarini kengaytirishni o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash kerakki, kriptoalyutalar jamiyat uchun aniq xavflarni o‘z ichiga oladi. Tranzaksiyalarning anonimligi jinoyatchilarga muomalada cheklangan yoki muomaladan chiqarib tashlangan obyektlar: qurollar, giyohvand moddalar bilan operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi. Yaponiyada kriptoalyuta nafaqat elektron shakldagi mulk, balki to‘lov vositasi ham bo‘lib, ushbu mamlakatda jozibador investitsiya muhitini yaratish imkonini beradi.<sup>5</sup>

**2. Tokenlar.** Huquqiy ta’limotda token raqamli aktivning bir turi sifatida qaraladi va quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- 1) fuqarolik huquqlari ob’ektiga bo‘lgan huquqni sertifikatlash
- 2) blokcheyn yoki boshqa tarqatilgan axborot tizimida mavjudlik.

O‘z mohiyatiga ko‘ra, token mulkiy huquqlarni qayd etishning raqamli usulidir.<sup>6</sup> Tokenlar ularning bajaradigan funksiyalarga qarab dasturiy, to‘lov, kredit, investitsion tokenlar va boshqa ob’ektlarga bo‘lgan huquqlarni mustahkamlovchi tokenlar kabi guruhlarga bo‘linadi. Birinchi tur- bu faqat kompyuter tizimi ichida harakat qilish huquqini beruvchi virtual birliklardir

<sup>4</sup> Kuznetsov Yu. V. Kriptoaktivы как документальные сепные бумаги // Закон. 2018. N 9. S. 42–43

<sup>5</sup> Popondopulo V. F. Правовые формы сифровых отношений // Yurist. 2019. № 6. S. 33

<sup>6</sup> Vasilevskaya L. Yu. Token как новый объект гражданских прав: проблемы юридической квалификации сифрового права // Актуальные проблемы российского права. 2019. N 5. S. 18–21.



(dasturiy mahsulotlar yaratish, ularni o'zgartirish, tizimdan foydalanish huquqlari). Ikkinchi tur tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'lov vositasi sifatida ishlatiladi (masalan, Bitcoin, Ethereum kabi to'lov tizimlari tokenlari). Uchinchi tur mablag'larni yoki narsalarni qaytarish huquqini mustahkamlash uchun ishlatiladi. To'rtinchi tur haqiqiy mablag'lar yoki virtual valyutalarni biznes loyihalarga investitsiya qilish operatsiyalarini aks ettiradi. Beshinchi tur esa egasining ishlar, xizmatlar, mol-mulk (harakatlanuvchi va harakatlanmaydigan), qimmatli qog'ozlar, ustav kapitalidagi ulush, boshqa ob'ektlar bo'yicha huquqlarini aks ettiradi. Token orqali fuqarolik muomalasidagi raqamli obyektning narxi kodlanadi. Tokenni mahsulot sifatida ishlatib, tizim foydalanuvchilari blokcheyn tizimida raqamli hisob birligi sifatida kriptovalyutadan foydalangan holda to'lovlarni amalga oshirish huquqiga egadirlar.<sup>7</sup> Bundan tashqari, token raqamli valyuta sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Bunday holda, u kriptovalyuta tokeni, ya'ni boshqa raqamli ob'ektlarga almashtirilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishi mumkin bo'lgan to'lov vositasi sifatida yoki haqiqatda ma'lum bir mahsulotni taqdim etish, ishlarni bajarish uchun to'lash uchun (tranzaksiya orqali) foydalaniladi. O'zining oxirgi ma'nosida token allaqachon taqdim etilgan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul majburiyatini bajarish funksiyasini amalga oshiradi yoki ularni olish huquqini beradi.

**3. Raqamli aktivlarga kompyuterda, saqlash qurilmasida yoki veb-saytda joylashgan har qanday fayl hamda har qanday **onlayn akkaunt** yoki **obuna** kirishi mumkin.**

“Akkaunt” tushunchasi ichki qonunchilikda mustahkamlanmagan, ammo uning huquqiy tabiati bo'yicha quyidagi pozitsiyalar mavjud: ma'lumotlar bazasi, ijtimoiy tarmoq egasining serveridagi yozuv ijtimoiy tarmoq tashkilotchisi bilan tuzilgan shartnomadan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar. Oddiy foydalanuvchilar nuqtayi nazaridan, hisob - bu ma'lum bir elektron tizim ichida foydalanuvchi tomonidan yaratilgan akkauntidir.<sup>8</sup> Akkuntlar qonun chiqaruvchi tomonidan fuqarolik huquqi ob'ekti toifasi sifatida kiritilmagan va mavjud bo'lganlardan biri sifatida tasniflanmagan bo'lsa-da, mazmuniga ko'ra, hisob "mulk" tushunchasiga to'liq mos keladi va mulk bo'lishi mumkin fuqarolik huquqining obyektini sifatida qaraladi. Bundan

<sup>7</sup> Lapteva A. M. Pravovoy rejim tokenov // Grajdanskoye pravo. 2019. N 2. S. 15–17.

<sup>8</sup> Kirsanova Ye. Ye. Akkaunt kak obyekt grajdanskix prav // Vestnik arbitrajnoy praktiki. 2020. N 2. S. 39–42.



tashqari, hisobni fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mustaqil ob'ekti yoki mulkiy kompleksning ajralmas qismi deb hisoblaydigan sud amaliyoti mavjud. Shunday qilib, Instagram ijtimoiy tarmog'idagi akkauntlar, shuningdek, VKontakte- dagi shaxsiy sahifalar yagona obyekt sifatida biznes oldi-sotdi shartnomasi predmetining tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.<sup>9</sup> Huquqni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan, akkauntni bir necha darajalarda ko'rib chiqish mumkin:

— birinchidan, akkaunt - bu odatiy muallif, odatda qandaydir axborot platformasi foydalanuvchisi - ijtimoiy tarmoqning ijodkorligi natijasida yaratilgan nomoddiy ob'ekt, bu ko'p jihatdan uni natijalar toifasiga yaqinlashtiradigan intellektual faoliyat. Bundan tashqari, akkauntga va intellektual mulkning boshqa ob'ektlariga nisbatan, mutlaq huquqlarni o'tkazish uchun litsenziya shartnomalaridan foydalanish keng tarqalgan bo'lishi mumkin. Ko'p jihatdan akkaunt ma'lumotlar bazasiga o'xshaydi, unda ma'lum miqdordagi ma'lumotlar to'planadi, uning har bir elementi butunlay mustaqildir;

— ikkinchidan, akkaunt dan axborot platformasi yoki aloqa vositasi sifatida foydalanish mumkin;

— uchinchidan, akkauntning o'zi fuqarolik huquqlari obyektlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladigan, ayirboshlanadigan tovar bo'lishi mumkin. Amalda, bir qator parametrlar tufayli tijorat qiymatiga ega bo'lgan akkauntlarni sotish bo'yicha takliflar tobora ko'payib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi 3832-sonli "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, "kriptografik usullardan foydalangan holda yaratilgan va taqsimlangan reyestrda qayd etilgan raqamli birliklar ko'rinishidagi raqamli moliyaviy aktivlar" deb kripto-aktivlar huquqiy jihatdan tan olingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi O'zbekistonda kriptoaktivlarni tartibga soluvchi organ sifatida tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi O'zbekistondagi kriptoaktivlarning huquqiy holatini yanada aniqlashtiruvchi qator me'yoriy hujjatlarni qabul qildi. Xususan, O'zbekistonda faoliyat yurituvchi kriptobirjalarga qo'yiladigan talablarni belgilab beruvchi kriptobirja savdosi

<sup>9</sup> Postanovleniye Trinadsatogo arbitrajnogo apellyatsionnogo suda ot 17.01.2018 N 13AP-30540/2017 po delu N A21- 6695/2017 // SPS "KonsultantPlyus".



qoidalarini ishlab chiqdi.

O‘zbekistonda kriptobirja faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olish uchun talablarni belgilab beruvchi kriptobirjalar faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni qabul qilingan. Unga ko‘ra 2023-yil 1-yanvardan boshlab faqat litsenziyaga ega kriptovalyuta firmalariga O‘zbekiston fuqarolariga kriptovalyuta savdosi xizmatlarini ko‘rsatishga ruxsat berildi. Ammo hozirda kriptoaktivlar O‘zbekistonda qonuniy tartibga solinmagani bois to‘lov vositasi hisoblanmaydi va ular soliq yoki boshqa davlat qarzlarini to‘lash uchun ishlatilmaydi. Biroq, ular tovar va xizmatlarni sotib olish uchun ishlatilishi mumkin, shuningdek, foyda olish uchun birjalarda sotilishi mumkin.

O‘zbekiston qonunchiligida raqamli aktivlarning fuqarolik muomalasi amalda hech qanday tarzda tartibga solinmagan. Fikrimizcha, samarali elektron fuqarolik muomalasini ta‘minlash maqsadida Fuqarolik kodeksidagi bitimlar ta‘rifiga elektron shaklda amalga oshiriladigan bitimlarni kiritish zarur. Elektron shaklda bitimlar tuzish imkoniyatini mustahkamlash uchun yangi bitim shakllarini (masalan, elektron shakldagi bitim) belgilash, raqamli taklif va qabul mazmuniga va shakliga qo‘yiladigan talablar, shunday shartnomalar uchun namunaviy shartlarni o‘rnatish talab etiladi.<sup>10</sup>

Yangi tartibga solish muhiti raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlik sub’yektlarini himoya qilishni ta‘minlaydigan yagona raqamli muhitni shakllantirish uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maramigin M.S., Виды и особенности майнинга современных денежных суррогатов- криптовалют, КАНТ №4(25), 2017, 215-219 б.
2. Sereda I.M., Особенности правового регулирования криптовалюты: зарубежный ответ, Вестник Сибирского юридического института МВД России, №3(40), 2020, 94-98 б.
3. [O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3832.](#)
4. Riyabchikov D.V., Основные аспекты регулирования криптовалюты в Сингапуре,

<sup>10</sup> Arnautov D. R., Yeroxina M. G. Сифровые активы в системе российского права // Rossiyskiy yuridicheskiy jurnal. 2019. N 4. S. 22–25





Образование и право №6, 2023, 242-245 в.

5. Долгиева М. М., Зарубежный опыт правового регулирования отношений в сфере оборота криптовалюты, Зарубежное право, №10 (143), 2018, 116-129 в.

**Elektron manbalar:**

1. <https://lex.uz/docs/-3806053>
2. <https://lex.uz/docs/-6158224>
3. <https://lex.uz/docs/-3806053>
4. <https://lex.uz/acts/-3806053>